

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA YOSH AVLODLARNI CHET TILLARIGA O'RGATISH DAVR TALABI

*Bozorboyeva Mohira Shavkatbek qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar bolalarni chet tiliga qiziqтира olish qobiliyati va uni o'rgatishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** chet tili, zamonaviy texnologiya, ta'lim –tarbiya, o'yin

Bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Tilni o'rganishni ancha ertaroq boshlashni tavsiya etiladi ya'ni imkon qadar maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi 3-7 yoshligidan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi chet tilini o'rganishni boshlash uchun juda qulaydir: bu yoshdagi bolalar til hodisalariga nisbatan sezgirliги bilan ajralib turadi, ular bu yoshda o'zlarining nutq tajribalarini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqishadi. Maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab yosh avlodni chet tillarini mukammal o'rganishiga shart-sharoitlar yaratish maktabgacha yoshdagi bolalarni tillarni o'rganishga qiziqtirish hamda yo'naltirish pedagogik muommolari dolzarb hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida yosh avlod masalasiga to'xtalar ekan:<sup>1</sup> “O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaatlarida ham ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh avlodni ijtimoiy faol, chet tillarini puxta egallagan fuqaro sifatida kamol tomishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ham chetda qoldirmadi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga e'tibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirish demakdir. Jumladan, <sup>2</sup>2012-yil 10-dekabrdaги „Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi №1875 – qaroriga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning tub mohiyati butun O'zbekiston hududida yoshlar ta'limiga chet tillarini uzviy bog'lash, yosh avlodning o'z fikrini boshqa bir tilda

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichgako'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2018. – 592 b.

benuqson ifodalay olishini ta'minlashdan iborat. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston ta'lim tizimida tub burilish yasadi. Yosh avlodlar uchun darsliklar yaratildi, ingliz tili maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab o'rgatila boshlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ingliz tiliga o'rgatishda avvalo, mahoratli tarbiyachilar jalb etilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalarni

ingliz tiliga o'rgatishda ularni ushbu tilga nisbatan qiziqtirishda tarbiyachidan katta mahorat talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirish;
- O'z maqsadlariga erishish, hayotiy aloqa sharoitida fikr va hissiyotlarini ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyati;
- Chet tillarini o'rganishga ijobiy munosabat yaratish;
- Dunyo mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqish uyg'otish

Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda bolalar asta-sekin kommunikativ

kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- fonetik nuqtai nazardan to'g'ri takrorlash qobiliyatini ya'ni inglizcha so'zlarni tarbiyachidan so'ng ya'ni to'g'ri talaffuz qilishni bosqichma-bosqich shakllantirish;
- inglizcha so'zlarni o'zlashtirish, birlashtirish va faollashtirish;
- ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil bayon tuzish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatlarni yaratish kerak va bu usul o'yin hisoblanadi. O'yin faoliyatida bolalarning o'z imkoniyatlariga ishonish qobiliyati chet tilida nutq uchun ijobiy turtki beradi. Eng oddiy iboralarni ham qiziqarli va mazmunli qilishga imkon beradi.

<sup>3</sup>**K.D.Ushinskiy** bir vaqtning o'zida bir nechta tillarni o'rganish ikkita quyovni ovlashga o'hshaydi deb ogohlantiradi: "Qachonki birinchi o'rganayotgan chet tilida bola katta erkinlikka ega bo'lganida ikkinchi chet tilini o'rganishni boshlashi kerak". Maktabgacha yoshdagi bolalar yangi xorijiy so'zlar, tovushlar, qofiyalar, sheriylar asarlar va qo'shiqlarga qiziqish bildirsa. Bunda haddan tashqari qat'iylik, natijaga yo'naltirish, qat'iy tartibga solish chet tilini o'rganishni yoqtirmaslikka olib kelishi mumkin. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda tarbiyachilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushuncha va gapirish) bo'linib, ular haqida tushuncha va ko'nikmalar beriladi.

<sup>2</sup> 2012-yil 10-dekabrda „Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida“gi №1875 – qarori

Tinglab tushinish uchun, albatta kompyuter,player,CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushinish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir.

Qiziqarli metodlardan biri – “Pantomima” o'yinida 4 kishi ajratiladi. Har bir guruhdan bittadan kishi doskaga chiqariladi. Ularga turli so'zlar ro'yxat asosida beriladi. Ular biror bir so'z aytmasdan imo-ishoralalar, harakatlar orqali, so'zlarni qolgan guruh a'zolariga tushuntirish kerak. O'yin jarayoni bolaning miyasi rivojlanishida katta ahamiyatga ega. O'yinning mohiyati shundaki, bu maqsad natija bo'lmagan faoliyatdir. Va aynan shu narsa miyaga kerak-turli xil his-tuyg'ular, rollar, natijaga yo'naltirilmagan barcha narsalar bilan shug'ullanish. Ishda natija har doim muhimdir va muammolardan biri shundaki, natijaga yo'naltirish zamonaviy dunyoda bolalar hayotiga erta va erta kiradi. Va haqiqiy erkin o'yin xavf ostida<sup>3</sup>.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tili o'qitishda tarbiyachi kerakli natijalarga erisha olmaslik sabablari. Tarbiyachida bolalarga savol-javobni to'g'ri qo'yilmasligi. Juda ko'p bog'cha yoshidagi bolalar kam gap, tabiatan yoqtirmagan narsasi uchun juda e'tiborsizlik bilan munosabat bildiradi. Buni yengib o'tish tarbiyachidan katta mashaqqatni talab etadi, uning berayotgan savollari tarbiyachining donoligini va bu mavzuni o'zi juda muhim egallaganini bildirib turishi kerak. Biz bolalar bilan ishlagan chog'imizda shuni bildiki bolalarning sezgi o'rganlari biznikidan katta yoshdagilardan ancha yuqori. Ular buni ifoda eta olmasalarda lekin his qilib turishadi. Odatda savol-javobni biz bir necha qismga bolamiz:

Tarbiyalanuvchi va tarbiyachi o'rtasidagi to'siqlarning olib tashlash, tarbiyalanuvchi bu yo'l orqali bolalar qalbiga yo'l topa oladi. Ularga muloyimlikni sezdirib savol-javobga kirishishi kerak bo'ladi. Barcha tarbiyachi bolalarning psixologiyasiga asoslanib savollarni bera olishi kerak, bu undan bolaning til darajasiga asoslanib savol tayyorlashni talab qiladi. O'tilgan mavzulardan ko'proq so'rash, bu uladagi hayajoni yoqatadi, ulada yangi mavzuga ko'nikma hosil bo'lgunga qadar, biroz bo'lsada yangi mavzuga nisbatan hayajon saqlanib turadi, buni yengib o'tishga tarbiyachi kuchli yondashishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalar yangi xorijiy so'zlar, tovushlar, qofiyalar, she'riy asarlar va qo'shiqlarga faol qiziqish bildirmoqdalar. Haddan tashqari qat'iylik, natijaga yo'naltirish, qat'iy tartibga solish chet tilini o'rganishni yoqtirmaslikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun psixologiya va bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini bilish o'qituvchi uchun juda zarurdir.

Shunday qilib, xulosa shuki, har qanday ta'lim, shu jumladan chet tilini o'qitish qat'iy ravishda o'yin orqali, o'ynoqi tarzda taqdim etilishi kerak. Va bola hayotidagi rivojlanish tarkibiy qismidan tashqari, maktabgacha tarbiyachining hayotida har xil turdagi o'yinlar bo'lishi kerak.

<sup>3</sup> Ushinskiy K.D.Pedagogik hikoyalar:B 6 t. T.2. Tuzuvchi C.F.Egorov. M.Pedagogika,1998.133b

Tarbiyachi yuqoridagi fikrlarni hisobga olishi va o'yin elementlari bilan ixtisoslashgan usullarni ishlab chiqishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 592 b.
2. 2012-yil 10-dekabrda „Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida“gi №1875 – qarori
3. Ushinskiy K.D.Pedagogik hikoyalar:B 6 t. T.2. Tuzuvchi C.F.Egorov. M.Pedagogika,1998.133b